

YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSHLARNI IJTIMOIIY-IQTISODIY VA SIYOSIY-MA’NAVIY SOHALARDAGI MAVQYEINI KUCHAYTIRISH

Feruz Turakulova Aminovna

Qo‘qon DPI katta o‘qituvchisi, t.a.

E-mail: feruzaxon@gmail.com

Abdujabborova Husnida Vohidjon qizi

Qo‘qon DPI talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda yoshlarni ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-ma’naviy sohalardagi mavqyeini kuchaytirish borasida olib borilayotgan davlat siyosati aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: yosh avlod, davlat siyosati, aniq maqsad, jismonan sog‘lom, “Yoshlar Parlamenti”

АННОТАЦИЯ

В данной статье отражена проводимая в новом Узбекистане государственная политика по укреплению позиций молодежи в социально-экономической и политико-духовной сферах.

Ключевые слова: молодое поколение, государственная политика, четкая цель, физически здоровый, "Молодежный парламент"

Mamlakatimizda yosh avlodni hayotga mustaqil qadam qo‘yishlarida ularning barkamol qilib tarbiyalash uchun barcha zarur sharoitlarni yaratishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib

kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat” [1].

Bugungi kunda har bir amalga oshirilayotgan islohotlarda yoshlar huquqi kafolatlangandir. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida“gi Qonunida yoshlarni huquqiy va ijtimoiy muhofaza qilish, iste’dodini qo‘llab-quvvatlash masalalari qamrab olingan bo‘lsa, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunda hokimiyat va boshqaruv organlarining bu boradagi vakolatlari hamda sohaga doir boshqa ijtimoiy munosabatlar huquqiy tartibga solingan. Shuningdek, Konstitutsiyamizning 41-moddasida bepul umumiy ta’lim olish huquqining yoshlar uchun kafolatlangani ham e’tiborga molikdir.

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati izchil davom ettirilmoqda. Unib-o‘tib kelayotgan yosh avlodning jamiyatda o‘z o‘rnini topishi uchun aniq maqsadli dasturlar tatbiq etilmoqda. Yoshlarimizning jamiyatimiz hayotidagi faol ishtiroki ham tobora ortmoqda. Prezidentimiz bugungi kun yoshlarini madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularning axborot texnologiyalari bo‘yicha savodxonligini oshirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta’minlash vazifalarini o‘z ichiga olgan beshta muhim tashabbusni izchil amalga oshirilishini ilgari surgan. Zero, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Farzandlarimiz mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb va xunarni egallagan, sog‘lom xayotiy pozitsiyalarga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun hech qachon o‘zining dolzarbligini yo‘qotmaydigan masala hisoblanadi,”[2] –deb takidlaganlari bejiz emas.

Yoshlarni ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-ma’naviy sohalardagi mavqeini kuchaytirish - Yangi O‘zbekistonni barpo etishimizda juda dolzarb masaladir. Harakatlar Strategiyasini biz bosqichma-bosqich amalga oshirmoqdamiz. Ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi yo‘nalish-yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishda - biz avvalo ularni jismonan sog‘lom, ruhan tetik, dunyo qarashi keng, zamonaga mos, hamnafas fikrlaydigan, Vatanga sodiq tarbiyalash bilan birga demokratik islohotlarni olib bormoqdamiz.

Yoshlarni qo‘llab quvvatlashda, ularning xuquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini ta‘minlashda qonun chiqaruvchi Oliy Majlis o‘rni bugungi kunda juda sezilarli. Uning qoshida "Yoshlar Parlamenti" tashkil etilishi ham ularga bo‘lgan diqqatni yorqin misolidir. Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi deputatlari, Senat a‘zolari xalqaro maydonda yoshlar manfaatini ifoda etishda ham faol ishtirok etib kelishmoqda.

Parlamentdagi ushbu ijobiy o‘zgarishlar taniqli siyosatchi, Parlamentlararo Ittifoqning Bosh kotibi janob Martin Chungong tomonidan yuqori darajada baholandi. Xususan, dunyo aholisining yarmidan ko‘pini 30 yoshgacha bo‘lgan insonlar tashkil etsa-da, butun dunyo bo‘yicha yosh deputatlarning ulushi 2,6 foizga ham yetmas ekanligini, O‘zbekistonda esa bu ko‘rsatkich 6 foizni tashkil etishi u tomonidan ijobiy ta‘kidlandi.

Aytish joizki, davlatimiz yoshlar masalasini strategik vazifa sifatida barcha islohotlarda nazarda tutadi. Chunki ular jamiyatimizda 63 foizini tashkil etadi. Dunyoda ham ular bilan bogliq muammolar kam emas. Shuning uchun ham davlatimiz rahbari jahon minbarlarida hamisha yoshlar masalasiga doir fikrlar bildiradi. Mamlakatimiz tarixida ilk marotaba O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ishtirokida 2020-yil 25-dekabr kuni O‘zbekiston yoshlari forumi o‘tkazildi. O‘ttiz mingdan ortiq yoshlar ishtirok etgan forumda Davlat rahbari tomonidan yoshlar bilan muloqot qilinib, ularning g‘oyalari, taklif va tashabbuslari qo‘llab-quvvatlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Sh.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi. <https://strategy.uz/index.php?news=615&lang=uz>
2. Sh.M.Mirziyoyev.”Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” T-2017
1. Aminovna, Feruza Turakulova. "Bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda “Ustoz-shogird” ananasidan foydalanish tizimini takomillashtirish

texnologiyasi." Ижтимоий фанларда инновация онлайн илмий журнали (2022): 191-194.

2. Ibragimovna, Tuhtasinova Munira. "The Importance of International Assessment Programs in Enhancement, Assessment and Development of Reading Literacy of Primary Students." Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture 3.11 (2022): 133-136.

